

**“ALPOMISH” DOSTONI VARIANTLARIDA EPIK FORMULALAR****Sa’dullayeva Maxliyo A’zam qizi***Alisher Navoiy nomidagi o‘zbek tili va adabiyoti universiteti**Folklorshunoslik va dialektologiya mutaxassisligi II bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** *“Alpomish” dostonining barcha variantlarida biz tush motiviga duch kelamiz. Dostondagi voqealar boshlanishida, rivojida va yakunida kelgan bunday tushlar o‘rniga qarab bir-biridan farqlanib turadi. Ushbu maqolada ham “Alpomish” dostoni variantlarida motiv, xususan, tush motivi haqida so‘z ketgan.*

**Kalit so‘zlar:** *“Alpomish” dostoni, motiv, tush motivi, safar motivi, uylanish motivi, sinov motivi.*

**Annotation:** *In all versions of the "Alpomish" epic, we encounter the dream motif. Such dreams, which come at the beginning, development and end of the events in the epic, differ from each other depending on the location. This article also talks about the motif, especially the dream motif, in the versions of the “Alpomish” epic.*

**Keywords:** *"Alpomish" epic, motive, dream motive, travel motive, marriage motive, test motive.*

“Alpomish” dostonining barcha variantlarida biz tush motiviga duch kelamiz. Dostondagi voqealar boshlanishida, rivojida va yakunida kelgan bunday tushlar o‘rniga qarab bir-biridan farqlanib turadi. Misol uchun, dostonning Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li variantida tush motivi voqeaning boshida va rivojida keladi. Qahramon, ya’ni Alpomishning dunyoga kelishi, ulg‘ayishi, uylanishi, hayot qiyinchiliklarini yengib, murod-maqсадiga yetishi tush motivi orqali ochib beriladi. Agar dostondagi tush motivi tushirib qoldirilsa, unda syujet jiddiy zarar ko‘radi. Dostondagi befarzandlik, ulg‘ayish, sinov, safar, uylanish va uyga qaytish motivlari bevosita tush motivi bilan chambarchas bog‘liq holda keladiki, tush bu o‘rinda voqealar rivoji uchun asosiy poydevor vazifasini o‘taganini ko‘ramiz.

Tush motiviga xos bo‘lgan asosiy xususiyatlardan biri uning ko‘pincha boshqa motivlarni o‘zi bilan birga yetaklab kelishidir. “Alpomish” dostonida Alpomish, Barchin va Qorajon bir vaqtning o‘zida ayni bir tushni ko‘radi: “Alpomish cho‘ponlarning qo‘shxonasida uxlab yotdi. Kechasi fayzi sahar vaqtiga yetdi, sahar vaqti cho‘ponlarning qo‘shxonasida yotib bir tush ko‘rdi. Izlab borayotgan Barchin yori, bul ham baxmal o‘tovda yotib, subhi sodiq tuqqan vaqtda bir tush ko‘rdi. Kashal g‘orida, to‘qson qalmoqning ichida

Qorajon alp ham bir tush ko'rdi. Uchovining tushi oldin keyin, do'g'ulish ko'rdi"<sup>26</sup>. Ana shu tush motivida butun doston voqealari oldindan bashorat qilinib, ramzlar tilida bayon etiladi. Ya'ni doston syujetining butun keyingi voqealari rivoji ana shu parchada ko'rsatib beriladi. Ushbu motivdan so'ng doston voqealari tezlashib, syujetning keyingi halqalari uchun vaziyat yaratiladi. Qorajon ana shu tush tufayli Alpomish bilan do'st tutinadi. Sinovda o'zi tug'ishgan akalarining yonida turib emas, Alpomish tomonida turib davraga tushadi. Alpomishning do'sti, sirdoshi, yaqin ko'makchisiga aylanadi. Shuning uchun ham ana shu tush parchasini doston syujetining "yadrosi" deb qarash mumkin.

O'zbek dostonlaridagi tush motivi sinov, uylanish, safar, qaytish kabi keyingi motivlar bilan chambarchas bog'langan holda keladi. Doston syujetining keyingi "taqdiri" ana shu tush motivi bilan bevosita bog'likki, agar Alpomish, Barchin va Qorajon ana shu tushni ko'rmaganlarida, Qorajon Alpomish bilan do'st tutinmagan va voqealar tizimi boshqacha rivojlangan, bu esa syujet o'zgarishiga olib kelgan bo'lardi<sup>27</sup>.

Epik ijodda motivlar hamisha rang-barang bo'ladi. Shuning uchun ham syujetda har bir motiv o'ziga xos "yuk"ka ega. Motivlarning o'zaro bir-biriga bog'liqligi, syujetdagi barqarorligi doimo ham bir xil bo'lavermaydi. Shuning uchun ularni ikki yo'nalishda olib qarash mumkin. Birinchisi, biror bir motivning tushib qolishi yoki o'zgarishi syujetda ham tub o'zgarish bo'lishiga olib keluvchi barqaror motivlar. Bunday motivlar asar strukturasi mustahkam o'ringa ega bo'ladi. Ikkinchisi, motivlar o'zgarishi hech qanday syujetning o'zgarishiga olib kelmaydi. Bunday motivlar boshqa bir motiv bilan almashtirish mumkin bo'lgan no-barqaror bo'lgan motivlar.

Fozil Yo'ldosh o'g'li variantidagi tush motivi barqaror motivlarga taalluqli bo'lib, bu motivning o'zgarishi boshqa motivlarning ham o'zgarishiga olib keladi. Biroq shu dostonning Po'ltan va Ergash Jumanbul variantidagi voqea yakunida kelgan tush motivining o'zgarishi yoxud tushib qolishi syujetda aytarli darajada katta o'zgarishlarga olib kelmaydi. Shuning uchun ham unga no-barqaror motiv namunasi sifatida qarashimiz mumkin.

Barqaror motivlar ham hamisha harakatda, ichki o'zgarishlarga moyil ekanligini ham unutmash kerak. Misol uchun, "Kuntug'mish", "Rustamxon", "Go'ro'g'lining o'limi" kabi dostonlarda ham tush barqaror motiv bo'lib keladi. Lekin "Kuntug'mish" dostonida u safar, "Rustamxon"da uylanish, "Go'ro'g'lining o'limi"da o'lim motivi bilan bog'liq holda keladiki, bu bog'liqlik vaziyatga qarab o'zgarishi mumkin. "Kuntug'mish"da

<sup>26</sup> Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорига туш ва унинг бадиий талқини. Монография. – Тошкент, Фан, 2011, 11-б.

<sup>27</sup> Эшонқулов Ж. Ўзбек фольклорига туш ва унинг бадиий талқини. Монография. – Тошкент, Фан, 2011, 12-б.

qahramon tushida yorini, “Rustamxon”da ona o‘z qizini, “Go‘ro‘g‘lining o‘limi”da Go‘ro‘g‘li o‘z pirini tushida ko‘radi. Barqaror motivdagi ana shu kichik ichki o‘zgarish keyingi motivga ta’sir qiladi, shu sababli keyingi motiv ana shu o‘zgarishga qarab belgilanadi.

O‘zbek xalq dostonlarida badiiy tasvirlangan tushlar sinchiklab o‘rganilsa, ularda xalqimizning tush hodisasi va bu o‘ziga xos tizim haqidagi e’tiqodiy qarashlari yanada oydinlashadi. Ushbu holat, birinchi galda, tush ko‘rish bilan bog‘liq tasavvurlar tasviri misolida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ma’lumki, xalqning qadim dunyoqarashiga ko‘ra, kishi uyqudaligi vaqti uning ruhi ravoni tanani ma’lum muddatga tark etib, tashqi dunyo, o‘zga olam va o‘lchamlarda sayr-sayohatda bo‘ladi. Ruhning ana shu sayohati davomida ko‘rgan-kechirgan, eshitgan, bilganlari tush deyiladi.

O‘zbek xalq dostonlarida keluvchi bir qator mumtoz tush namunalarida qahramonlarning tush ko‘rishi tasviriga aynan ana shu e’tiqodiy tasavvurlar asos qilib olinganini ko‘ramiz.

“Alpomish” dostonida Alpomishning tush ko‘rish holati kuylangan o‘rinlarga diqqat qilaylik: “Chiltonlar ilm-u karomat bilan Chilbir cho‘lidan, Oyna ko‘lidan, Baxmal o‘tovda uxlab yotgan yeridan, Barchinning ruhini olib keldi tanidan. Alpomish munda uxlab yotibdi, uxlab yotgan yeridan buning ham ruhini tanidan oldi. Alpomishning ruhi bilan Barchinning ruhini o‘rtada bir yerga qo‘ydi. Bir kosa sharobi antahur chiltonlardan Barchinning ruhiga tegdi. Barchinning ruhi sharobni qo‘liga olib, Alpomishni ko‘rib, bir o‘zi ichgani ko‘ngli bo‘lmay, Alpomishning ruhiga oling-oling qilib, bu so‘zni aytib turgan ekan:

*Oling, allayor-allayor,*

*Keling, allayor-allayor,*

*Bo‘ling, allayor-allayor”<sup>28</sup>.*

Alpomishning ruhi Barchinga javob qaytaradi: “Bul so‘zni ikkovining ruhi bir-biriga aytdi, kechasi fayzi sahar vaqtiga yetdi. Chiltonlar Barchinning ruhini olib ketdi, Chilbir cho‘lida, Oyna ko‘lida, baxmal o‘tovda, uxlab yotgan yerida Barchinning ruhini ham taniga kirgizib qaytdi. Alpomishning ruhini ham taniga kirgizdi. Erta-mertan tong otdi. Oqshom ko‘rgan odamlar yo‘q, bir o‘zi qopti. Qadimgidan sertaraddud bo‘lib, biyning qizini tushida ko‘rib: “Oq qubba kelgan, qizil chiroyli, xo‘b barkamol, yaxshi qiz ekan”, deb otlanib yotibdi.

<sup>28</sup> Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1999. – 172 б.

Barchin ham kanizlarga kulib o'tiribdi: – Biy bobomning o'g'li tushimga kiribdi, ikkovimiz bir yerda o'tiribmiz, pok bo'lmasa, it yiqilish bo'laylik, deb qopmiz, ancha gaplashibmiz, – deb vaqti xush bo'p o'tiribdi”<sup>29</sup>.

Keltirilgan misollar xalqimizning tush hodisasi bilan bog'liq quyidagi o'ta muhim qadim e'tiqodiy qarashlarini o'zida mujassam etganligi bilan ham ahamiyatli. Rahmoniy tushlar homiy eranlarning ruhi ravonni tandan chiqarib, tayin manzillarga olib borib, tegishli ruh bilan uchrashtirishi va yana tanga qaytarishi natijasida olgan ma'lumotlari ekanligi va ayni holatning real voqelik sifatida anglashiluvini.

Tushda kishilarning ko'rishi ham ruhlarning uchrashuvi natijasi sifatida talqin etiladi. Masalan, Qorajon Alpomishga ilk bor Murodtepada duch kelganida ko'rgan tushini eslab “... Magar qirq chilton bilan rasul payg'ambar meni musulmon qilib, qavm-qarindoshini tushimda ruhima ko'rsatib, meni do'st qilgan, Qo'ng'irotdan kelayotgan Alpomish degan komilbachcha shul bo'lmasa”, – deb Alpomishga qarab, bir so'z deb turgan ekan”<sup>30</sup> tasvirida ham ruhiy holatga alohida urg'u berilmoqda.

Barchinning esa Suqsuroy kanizga o'z tushini so'zlay turib: “Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda”, deb aytishi zamirida ham xuddi ana shu tasavvurlar olami turibdi. Ruhi ravon ko'chishi va voqealar kechish jarayonining fayzi sahar vaqtida ro'y berishi. Chiltonlar Alpomish va Barchin, Kuntug'mish va Xolbeka ruhlarni sahar payti uchrashtirgani aniq aytilgan.

Rahmoniy tushlarning sahar payti ko'rilishi “Alpomish” dostonida Barchinning ikkinchi tushi bayonida yanada mukammal tasvirlangan: “Barchin ham ko'rgan tushini Suqsuroy kanizga aytib turibdi:

Xazon bo'lib bog'da gullar so'lganda,  
Jon jasaddan bir beqaror bo'lganda,  
Ziyon yotib, rahmat toshar bo'lganda,  
Rahmat daryo ayni toshib kelganda,  
Tush ko'ribman fayzu sahar bo'lganda...”<sup>31</sup>

Odatda, sahar payti barcha ziyon-zahmatlar, ya'ni tun (zulmat) kuchlari chekinib, yorug'lik (kun) hukmi qaror topadi va shu payt ko'rilgan tushlar albatta ro'yobga oshadi, deb anglanadi. “Alpomish”, “Kuntug'mish”, “Rustamxon” va boshqa dostonlarimizdagi karomatli tushlarning sahar payti ko'rildi, deb tasvirlanishining bosh sababi ham shundan. Tush

<sup>29</sup> Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қаҳрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1999. – 174 б.

<sup>30</sup> Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi M. Zarifov. — T.: «Sharq», 2010. – 167 b

<sup>31</sup> Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi M. Zarifov. — T.: «Sharq», 2010. – 300 b

ko'ruvchilarning uyg'onib, bo'lgan voqeani eshlashlari va ta'bir izlab, tadbir belgilashlari. Dostonlarimizdagi deyarli barcha tushlarni bunga misol qilib keltirish mumkin. Yuqorida ko'rib chiqilgan tush namunalarining o'zbek xalq dostonlari tarkibida keluvchi aksariyat tushlardan ajralib turuvchi muhim bir jihati – bir vaqtning o'zida ikki yoki undan ortiq kishining bir xil mazmundagi tush ko'rishining tasvirlanishida. “Alpomish” dostonining ikki o'rnida, avvalo, Alpomish va Barchin, so'ngra Qorajonlar, “Kuntug'mish” dostonida Kuntug'mish va Xolbeka, “Yunus bilan Misqol” (Rahmatulla Yusuf o'g'li varianti)da Go'ro'g'li va Yunus, Misqol parilar bir xil tush ko'rishadi. Qahramonlarning bu tartibda bir paytda bir xil tush ko'rishlari ularning yagona ruhiy iqlimga mansub bo'lib, orzu-intilishlari taqdirilarida bog'liqlik mavjudligidan ham dalolat beradi.

O'zbek xalq dostonlarida tushlarni kimlar, qaysi holatda ko'rishlaridan qat'i nazar, doston syujeti va voqealar bayoniga aloqadorligiga ko'ra ikki katta guruhga ajratish mumkin. Butun asar davomida o'z tasdig'ini topib boruvchi, qahramonlar hayoti va taqdirini deyarli to'la qamrovchi tushlar. Syujet halqalarining ma'lum bo'g'inlari, qahramonlar hayotining u yoki bu davriga taalluqli tushlar<sup>32</sup>.

Mohiyatan doston fabulasiga teng, o'ta timsoliy shaklda keluvchi bu xil tushlar asar badiiy qimmatini oshirish barobarida, epos strukturasi taqdirning roli hal qiluvchi o'ringa egaligini namoyon etuvchi yetakchi unsurlardan hisoblanadi. Odatda, ushbu guruhga aloqador tushlar doston voqealari boshidan yoki voqea rivojining avvalidan o'rin oladi.

Ikkinchi guruh doston voqealari bayonining deyarli barcha bo'g'inlarida, ko'pchilik holatda, voqea rivoji va so'ngida keladi. Ushbu guruhning yorqin namunasi sifatida “Alpomish” dostonining Umir baxshi va Ergash shoir variantidagi voqea yakunida Boybo'ri ko'rgan tushni keltirish mumkin: “Shunda tush ko'rganini aytib, Boybo'ribek bir so'z dedi:

Og'aynilar, bugun uxlab tush ko'rdim,  
Men tushimda xo'p ajoyib ish ko'rdim.  
Kashalning elidan bir shunqor uchdi,  
Qultoyning oldiga parvoz qip tushdi.  
...Xobnoma kitobni olib kel, Qaldirg'och,  
Bu tushimning ta'birini jo'ragin<sup>33</sup>.

Keltirilgan misoldan aniq ko'rinib turibdiki, bu guruhga mansub tushlar doston syujetining ma'lum qismi va vaqt jihatidan hodisalardan

<sup>32</sup> Folklorshunoslikka kirish. Jo'rayev M., Eshonqulov J. O'quv qo'llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017, 25-bet

<sup>33</sup> Alpomish. Doston. Aytuvchilar U.Safarov, M.Avliyoqul o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, J. Eshonqulov. – T.: “Akademnashr” 260-bet

qahramonlarga tegishli ma'lumotlarni, xabarlarini ilohiy maktub sifatida yetkazishga xizmat qiladi.

O'zbek folklori, xususan, ertak va dostonlardagi tushlarning tabiati, o'ziga xos xususiyatlari, umumiy jihatlari ularni o'zaro muqoyasa etganda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Алпомиш. Достон. Ўзбек халқ қахрамонлик эпоси / Айтувчи Фозил Йўлдош ўғли. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Тўра Мирзаев. – Тошкент: Фан, 1999. – 174 б.
2. Alpomish. Doston. Aytuvchilar U.Safarov, M.Avliyoqul o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: T.Mirzayev, J. Eshonqulov. – T.: “Akademnashr” 260-bet
3. Alpomish: O'zbek xalq qahramonlik dostoni / Aytuvchi F. Yo'ldosh o'g'li, yozib oluvchi M. Zarifov. — T.: «Sharq», 2010. – 167 b.
- а. Эшонкулов Ж. Ўзбек фолклорида туш ва унинг бадиий талкини. Монография. – Тошкент, Фан, 2011, 11-б.
4. Folklorshunoslikka kirish. Jo'rayev M., Eshonqulov J. O'quv qo'llanma. – T.: “Barkamol fayz media”, 2017, 25-bet
5. Мирзаев Т. «Алпомиш» достонининг ўзбек вариантлари. – Тошкент: Фан, 1968. –168 б.
6. Mirzayev T. va b. O'zbek folklori. Darslik. Toshkent.: 2020.
7. Мифы народов мира. В двух томах. –М.: Советская энциклопедия, 1992. Т.2. – 720

#### II. Arxiv materiallari

8. ЗЎФА. Инв.№1969. “Алпомиш” достони. Абдуназар Поёнов варианты.
9. ЗЎФА. Инв.№920. “Алпомиш” достони. Мардонакул Авлиёкул ўғли варианты.
10. ЗЎФА. Инв.№1217. “Алпомиш” достони. Абдулла Нурали ўғли варианты.
11. ЗЎФА. Инв.№1217. “Алпомиш” достони. Хамро Эргаш ўғли варианты.
12. 14. ЗЎФА. Инв.№1254. “Алпомиш” достони. Умир Сафаров варианты.